

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING QASDDAN BADANGA YENGIL SHIKAST YETKAZISH  
JINOYATLARINING MAXSUS PROFILAKTIKASI BO'YICHA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH  
YO'NALISHLARI**

**Tashtemirov Anvar Aliqulovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,  
Ma'muriy huquq kafedrasida dotsenti.*

*E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.*

**Nematjonov Jasurbek Qaxramonjon o'g'li**

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,  
313 guruh kursanti.*

**Annotatsiya.** *Qasddan badanga yengil shikast yetkazish orqali sodir etiladigan jinoyatlar profilaktikasining tushunchasi va ahamiyati, ushbu yo'nalishda bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlar hamda profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan chora-tadbirlar doirasidagi muammolar va ularni barataraf etish yo'nalishlariga oid ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, qo'rqitish, ruhiy ta'sir, jismoniy zo'rlik ishlatish, himoyalash choralari.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish, huquqbuzarlikni sodir etishga sabab bo'layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni ijtimoiy profilaktika choralari tizimi orqali hal etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish yo'nalishida

10 dan ortiq qonun, 20 ga yaqin Prezident farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasi va tegishli idoralarning bir qator normativ hujjatlari qabul qilinganligi, shuningdek «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmonida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlarni yanada izchi davom ettirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish masalasiga e'tibor qaratilganligi ushbu vazifaning naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvardagi «2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1-sonli qarorida ham bu masala bugunning asosiy kun tartibida ekanligi qayd etilgan. Jumladan, unda:

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi bilan belgilangan mas'ul idoralar va muassasalar uchun 2025 yilda «Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish» ustuvor vazifa etib belgilansin va quyidagi ishlash mexanizmlari joriy etilsin:

2024 yilda jinoyat sodir etilgan har bir mahallada kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilishning mahallalar kesimida choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilagan holda mahalla — tuman — viloyat darajasida uning ijrosi uchun bevosita mas’ul rahbarlarni biriktirish va aniq sohaviy javobgarlikni yuklash;

kriminogen vaziyat og’ir mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda maqsadli o’rganishlarni o’tkazish orqali huquqbuzarliklarga sabab bo’layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo’yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko’rish;

mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda «mahalla yettiligi» har bir vakilining aniq mas’uliyatini belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga yangicha ish uslublarini tatbiq qilish;

aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo’lishi mumkin bo’lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish;

mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog’lig’i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish;

mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo’yicha har bir mas’ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat’iy so’rov tizimini yo’lga qo’yish hamda ushbu masalaga mas’uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta’sir choralarni ko’rib borish masalalariga e’tibor qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining maxsus profilaktikasini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish dolzarb masala ekanligi namoyon bo’ladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlariga bo’lgan jamiyat ehtiyoji va Harakatlar strategiyasida bu sohada belgilangan ustuvor vazifalar talablari, mazkur diplom ishi doirasida o’tkazilgan tadqiqotlar natijalari huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasining tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda: a) nazariy; b) tashkiliy; v) huquqiy; g) metodologik asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining maxsus profilaktikasini nazariy, tashkiliy, huquqiy va metodologik ta’minlash modeli hamda uning qoidalariga, shuningdek ularning bugungi holati tahlili natijalariga asoslangan holda quyida mazkur asoslarni uyg’unlikda takomillashtirish yo’nalishlarini ko’rib chiqishga harakat qilamiz.

Birinchi yo’nalish. Bugungi kunda qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining maxsus profilaktikasini maqsadi, vazifalari, sub’ektlari, ob’ektlarini aniq va to’liq belgilash imkonini beradigan nazariy asoslar bo’lib xizmat qiladigan tushunchalarni ilmiy muomalaga kiritish zarurati vujudga kelgan.

Huquqbuzarlik tushunchasini faqatgina Ma'muriy va Jinoyat kodeksi normalari talablari buzilishi nuqtai nazaridan emas, balki mazkur normalar talablari buzilishi zanjirining oldingi halqalari bo'lgan fuqarolik, oila, mehnat, ekologiya, tadbirkorlik va boshqa huquq sohalari normalarining buzilishini ham o'zida aks ettirishi; b) viktimologiya nafaqat huquqbuzarliklardan jabrlangan, balki jabrlanish ehtimoli yuqori va jabrlanishga moyil bo'lgan shaxslarni hamda ularning sabab va unga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'rganishi; v) profilaktika nafaqat huquqbuzarlik sodir etilishiga, balki huquqbuzarlikdan jabrlanishga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ogohlantirish hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabab-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ham nazarda tutishi kerakligi diplom ishida asoslantirildi hamda mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi.

Mazkur tushunchalarning huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasiga kiritilishi va amaldagi qonunlarda mustahkamlanishi kelajakda huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ hamda muassasalarga bu sohada chora-tadbirlarni aniq va manzilli belgilash hamda ular faoliyati yo'naltiriladigan ob'ektlarni to'liq qamrab olish imkoniyatini beradi.

Ikkinchi yo'nalish. Ichki ishlar organlarining: a) O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 10-moddasiga muvofiq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha belgilangan vakolati doirasida, mazkur qonunning 23-moddasi talablari asosida esa huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlashi hamda ularni bartaraf etish to'g'risida taqdimnomalar kiritishi; b) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 313-moddasi talablariga muvofiq ma'muriy ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxsi ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlaganda ularni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi taqdimnomani tegishli korxonaga, muassasaga, tashkilot rahbariga kiritishi, rahbar esa taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organga (mansabdor shaxsga) ko'rilgan choralar haqida ma'lum qilishi shartligi; v) surishtiruvchisi va tergovchisi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksning 296-moddasiga muvofiq jinoyat ishlarini yuritishda jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashlari shartligi, 297-moddasiga muvofiq esa ular jinoyat ishini tergov qilish chog'ida aniqlangan jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralarini ko'rish to'g'risida tegishli davlat organiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga taqdimnoma kiritishi belgilangan.

Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining maxsus profilaktikasiga oid nazariyada, qonunchilikda va amaliyotda ham huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli(moyillik)ni shakllantiruvchi va jabrlanishni taqozo etuvchi sabablarni hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni (viktimogen omillarni) aniqlash, shuningdek ularni bartaraf etish sohasida muayyan bo'shliqlar borligi aniqlandi hamda asoslantirildi.

Uchinchi yoʻnalish. Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining maxsus profilaktikasini amalga oshirishda maʼmuriy huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli(moyilligi)ni shakllantiruvchi va jabrlanishlarning sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek ularni bartaraf etish boʻyicha taqdimnoma kiritilishi huquqiy tartibga solinmagan.

Jinoyat ishlari boʻyicha taqdimnomalar kiritish masalalari yuzasidan oʻtkazilgan sotsiologik soʻrovda ishtirok etgan tergov departamenti xodimlarining:

a) 8 foizi jabrlanuvchilar bilan bogʻliq holatlarni oʻrganganligini, 18 foizi ayrim jinoyatlar boʻyicha oʻrganganligini, 74 foizi esa umuman oʻrganmaganligini;

b) 2 foizi jinoyatdan jabrlanishni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalarni, 20 foizi jabrlanuvchilarning aybi bilan bogʻliq holatlarni bartaraf etish toʻgʻrisida taqdimnomalarni kiritganligini, 78 foizi esa umuman bunday taqdimnomalarni kiritmaganligini;

v) 56 foizi jinoyatdan jabrlanishni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish boʻyicha taqdimnomalarni kiritish vakolatiga ega emasligi, 44 foizi esa qonun bilan bunday vakolat mustahkamlanmaganligi mazkur chora-tadbirni amalga oshirmasligiga asosiy sabab ekanligini qayd etishgan.

Tadqiqot natijalari ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli(moyilligi)ni shakllantiruvchi va jabrlanishning sabab hamda unga imkon beruvchi shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek ularni bartaraf etish boʻyicha faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi mavjud ziddiyat va boʻshliqni bartaraf etishni taqozo etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining normalarini takomillashtirish. Mazkur kodeksning 313-moddasi hamda 196-moddalari oʻrtasida nomuvofiqlik mavjud boʻlib, uni quyidagilar bilan asoslash mumkin: birinchidan, kodeksning 313-moddasiga asosan taqdimnoma kiritish vakolati ishni koʻrib chiquvchi organ (mansabdor shaxs)ga berilgan; ikkinchidan, kodeksning 196-moddasida esa ishni koʻrib chiquvchi organ emas, balki huquqbuzarlik sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va ichki ishlar organlarining yozma taqdimnomalarini bajarish choralari koʻrmaslik uchun javobgarlik belgilangan.

Bundan tashqari, mazkur kodeksning 313-moddasiga asosan ishni koʻrib chiquvchi organlarga taqdimnoma kiritish vakolati berilgan boʻlsa-da, taqdimnomani bajarish choralari koʻrmaganlik uchun javobgarlik masalasi faqat sud tomonidan hal qilinishi belgilangan. Bu esa vakolatli organning taqdimnomasini profilaktik jihatdan taʼsir etish darajasi samarasizligiga olib kelmoqda. Belarus Respublikasi Maʼmuriy huquqbuzarliklar toʻgʻrisidagi kodeksining 24.3-moddasida prokuratura, surishtiruv, tergov (nazarda tutilgan boshqa) organlari tomonidan kiritilgan taqdimnomani bajarmagan hollarda ushbu organlar maʼmuriy bayonnoma rasmiylashtirishga vakolatli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining:

a) 196-moddasida nafaqat Milliy gvardiya va ichki ishlar organlarining, balki huquqbuzarlikning, shuningdek huquqbuzarlikdan jabrlanishning sabab va sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan vakolatli organlar (MJtKning 313-moddasiga asosan 34 ta organ, JPKning 297-moddasiga asosan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror)ning yozma taqdimnomalariga asosan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo komissiya”lar tomonidan hal etilishini nazarda tutuvchi qoidani mustahkamlash zarur;

b) 313-moddasiga ishni ko‘rib chiquvchi organ (mansabdor shaxs) tomonidan korxonalar, muassasa, tashkilot rahbariga kiritilayotgan taqdimnomada huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli(moyilligi)ni shakllantiruvchi va jabrlanishning sabab hamda unga imkon beruvchi shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish kerakligi haqida qoida kiritilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi normalarini takomillashtirish. Mazkur kodeksning: a) 296-moddasiga jinoyatdan jabrlanish ehtimoli(moyilligi)ni shakllantiruvchi va jabrlanishning sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash majburiyatini; b) 297-moddasiga surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishini tergov qilish chog‘ida jinoyatdan jabrlanish ehtimoli(moyilligi)ni shakllantiruvchi va jabrlanishning sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, tegishli davlat organiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va shart-sharoit hamda omillarni bartaraf qilish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnoma kiritishini; v) 298-moddasiga jinoyat ishini ko‘rish jarayonida jinoyatdan jabrlanish ehtimoli(moyilligi)ni shakllantiruvchi va jabrlanishning sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlanganidan keyin sud xususiy ajrim chiqarishini, unda tegishli davlat organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, jamoat birlashmalaridan, jamoalardan yoki mansabdor shaxslardan ana shu sabab va shart-sharoitlarni hamda omillarni bartaraf etish choralarini ko‘rishni talab qilishini; g) 299-moddasiga jinoyatdan jabrlanish ehtimoli(moyilligi)ni shakllantiruvchi va jabrlanishning sabablari hamda ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risidagi taqdimnoma yoki xususiy ajrim yuborilgan davlat organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxs zarur choralarini ko‘rishi va ko‘rilgan choralarning natijalari to‘g‘risida kechi bilan bir oylik muddat ichida tegishincha surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni yoki sudni xabardor qilishi shart ekanligini nazarda tutuvchi qoidalarni kiritish zarur.

To‘rtinchi yo‘nalish. qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatlarining maxsus profilaktikasiga qaratilgan chora-tadbirlarni harakatlantiruvchi huquqiy mexanizmi yetarlicha emas. Xususan:

a) O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi qonunining 44-moddasida (1-q. 3-b.), shuningdek O‘zbekiston Respublikasining IIVning 2017 yil 25 avgustdagi «Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi

yo'riqnomasida belgilangan «Huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish» chora-tadbiri shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlangandan keyingi holatini nazarda tutadi. Bu esa bir tomonlama bo'lib, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi tamoyiliga zidlikni keltirib chiqaradi;

b) O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunida (28-m. 4-q. 1-b.) «jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilgan joyda yoki hodisalar joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam yoki boshqa xil yordam ko'rsatilishini tashkil etish» majburiyati belgilangan va unga ko'ra voqea joyidagi jabrlanuvchilarni aniqlash va reabilitatsiya qilish nazarda tutilgan bo'lib, jinoyatlar, voqea-hodisalardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishga qaratilgandir;

v) O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentyabdagi «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonunida (8-m. 1-q. 3-b.) «Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik sodir etilganligi yoki sodir etilishi tahdidi mavjudligi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqishi» mazmunidagi chora-tadbir belgilangan bo'lib, bu xotin-qizlar har qanday huquqbuzarliklardan jabrlanishini barvaqt oldini olishga xizmat qiladi, shuningdek qayta jabrlanishiga yo'l qo'ymaydi. Biroq ushbu chora-tadbir ham bir taraflama bo'lib, buni faqatgina xotin-qizlarga qaratilganligi bilan asoslash mumkin.

Xulosa sifatida atish mumkinki, huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid amaldagi qonunlarga huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, shu jumladan ichki ishlar organlarining jamiyatda huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimolining va jabrlanishga moyil shaxslarning shakllanishining barvaqt oldini olish, shuningdan huquqbuzarlikdan jabrlanish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha vakolatlarni hamda ularni amalga oshirish tartibi va talablarini belgilovchi normalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvardagi «2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1-sonli qarori

2. Таштемиров А. А. и др. Хуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 454-461.

3. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида хуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.

4. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

5. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.

6. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.

7. Аминов Ш. Н., Мирсалихова Г. А. Ёшларда экстремизмга қарши иммунитетни шакллантириш йўналишлари //Innovation in the modern education system. – 2025. – Т. 6. – №. 49. – С. 215-225.

8. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

9. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.

10. Аминов Ш. Н. Терроризм ва экстремизмнинг жамият барқарорлигига таҳдиди //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2025. – Т. 8. – №. 2. – С. 15-22.

11. Аминов Ш. Н. Возникновение терроризма, а также факторы, его вызывающие //Международная конференция академических наук. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 167-173.

12. Мирзахмедов А. М., Аминов Ш. Н., Холматов Ф. М. Таълим сифати–ижтимоий тараққиёт омили //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 424-432.

13. Холматов Ф. М., Аминов Ш. Н. Фарғона водийсида жадидлик: миллий маданият муаммолари //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 5. – №. NUU Conference 2. – С. 848-856.

14. Асрақулов М. М., Мирсалихова Г. А. Ички ишлар органлари тезкор-қидирув фаолиятининг вазифаларини ҳал этишда овоз ёзиш воситаларини қўллаш тартиби //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2025. – Т. 4. – №. 44. – С. 268-276.

15. Таштемиров А. А. и др. Жамиятда фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтиришда ило профилактика инспекторларининг асосий вазифалари //Scientific approach to the modern education system. – 2025. – Т. 3. – №. 35. – С. 91-96.